

REZYUME. Maqolada Toshkent viloyatida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishida demografik holatning o'zgarishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Toshkent viloyatidagi demografik vaziyat muammo va yechimlar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены вопросы, связанные с изменением демографической ситуации в организации дошкольных образовательных организаций, созданных в Ташкентской области. Представлена демографическая ситуация в Ташкентской области, проблемы и пути их решения.

SUMMARY. This article discusses issues related to changes in the demographic situation in the organization of pre-school educational organizations created in the Tashkent region. The demographic situation in the Tashkent region, problems and ways to solve them are presented.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING TASHKILLASHTIRILISHI VA HUDUDIIY JOYLASHUVIDAGI TAFOVUTLAR

K.K.Uzakbaev – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: aholiga xizmat ko'rsatish, maktabgacha ta'lim, bolalar soni, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xizmat ko'rsatish radiusi, shaharsozlik normalari va qoidalar.


Ключевые слова: обслуживания населения, дошкольное образование, количество детей, дошкольные образовательные организации, радиус обслуживания, градостроительные нормы и правила

Key words: public services, preschool education, number of children, preschool educational organizations, service radius, urban planning norms and rules

Kirish. Har bir mamlakat, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning ta'lim tizimi alohida mavqega ega. Chunki, mamlakat istiqboli, yosh avlod kelajagi, ularning intellektual salohiyati bevosita ta'lim tizimiga bog'liq. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu masalalarga qaratilgan. Yurtimizda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi zamonaviy ta'lim muassasalar tizimini yaratish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda [1:226]. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni 1-ilova «IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» bo'limi 37-49 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ta'lim tizimini jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [1].

Ta'lim tizimining ilk bosqichi maktabgacha ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Ta'limning mazkur bo'g'ini bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Asosiy qism. Qoraqalpog'istonda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 546 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) mavjud. 2010-yilda ularning soni 332 ta bo'lgan, demak, o'tgan 13 yil mobaynida 214 taga, yiliga o'rta hisobda 16 tadan ko'payib borgan. Respublika jami MTTlarning 18 % i (98 tasi) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'g'ri keladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni ham so'nggi yillarda tez ko'paymoqda. Masalan, bunday turdagi tashkilotlar 2018-yilda 27 ta, 2020-yilda 82 ta, 2023-yilda esa 98 tani tashkil qilgan.




1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida MTT larning soni (2010 va 2022-yillarda)

Rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qoraqalpog'istonda 2023-yilning boshi holatiga ko'ra, MTTlar soni bo'yicha Nukus shahri (81 ta), Beruniy (61 ta), Amudaryo (55 ta), To'rtko'l (44 ta) tumanlari oldingi o'rinda turadi. Eng kam soni esa Bo'zatov (8 ta) va Shumanay (13 ta) tumanlariga to'g'ri keladi (2.9-rasm). Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha Nukus shahri peshqadamlik qiladi, unga 21 ta, Qo'ng'iro't tumaniga 11 ta va To'rtko'l va Ellikqala tumanlarining har biriga 10 tadan mos keladi. Shumanayda 1 ta, Mo'ynoq va Qorao'zak tumanlarida 2 tadan mavjud (1-rasm).

Mavjud MTTlarda o'rinlar soni respublika bo'yicha 73,8 mingtaga teng, yoki o'rta hisobda bitta MTTga 135 tadan mos kelgan. O'rinlar soni ham keyingi yillarda ortib bormoqda (2018-yilda ular 50,9 mingta bo'lgan). Nukus shahrida o'rinlar soni 15,6 mingta, Qo'ng'iro't tumanida 7,6 mingta, Beruniy, To'rtko'l va Amudaryo tumanlarida 5,3-6,7 ming atrofida. Bo'zatov tumanidagi 8 ta MTTning o'rinlar soni 700 ta atrofida.

Qoraqalpog'istonda 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 79,7 % teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 62,0 % tashkil qiladi). Bu borada mintaqa respublika hududlari orasida peshqadam hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi, foizda, 1.01.2023-y.


Rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qoraqalpog'iston MTTlarida bolalarning joylar bilan ta'minlanishida (100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, nafar) ham katta hududiy tafovutlar mavjud. Respublika MTTlarida 100 o'ringa 127 nafar bola to'g'ri kelgani holda, To'rtko'l tumanida bu ko'rsatkich 205 ta, Amudaryoda 192 ta, Shumanayda 180 ta, Ellikqal'ada 149 tani tashkil etgan. Bu jihatdan Qo'ng'iro't tumanining ko'rsatkichi 100 ta o'ringa 97 ta (3-rasm).

O'rganilayotgan yilda Qoraqalpog'iston MTT tarbiyalanuvchilar soni 93258 ta, o'rta hisobda bitta maktabgacha ta'lim tashkilotiga 171 tadan mos keladi.

MTTda tarbiyalanuvchilar Nukus shahrida 16,3 mingta, To'rtko'l'da 11,6 mingta, Amudaryo tumanida 10,2 mingtaga teng. Nodavlat MTT bolalar soni Nukus shahrida 1,7 mingta va To'rtko'l tumanida 1,1 mingni tashkil qilgani holda, boshqa tumanlarda ularning soni ko'p emas.

Ta'kidlash joizki, MTT bilan qamrab olishda mazkur turdagi muassasalarning xizmat ko'rsatish radiusi ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Shaharsozlik normalari va qoidalar (SHNK 2.07.04-2019) Qishloq xo'jaligi korxonalar hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish" madaniy-ma'rifiy va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining tashkil etilishi bo'limi 7.14-punktida aholi manzilgohlariga madaniy-ma'rifiy va savdo-maishiy xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar va muassasalar tarmog'ining joylashtirilishi mavjud obyektlarning bu kabi obyektlarga ehtiyojni hisobga olib turib qilingan tahlili asosida, o'ziga xos milliy xususiyatlar va qaror topgan an'analarni inobatga olgan holda hal qilinishi lozimligi ko'rsatilgan (Shaharsozlik norma). Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (bog'cha-yasllilar) xizmat ko'rsatish radiuslari har bir qishloq aholi punktining 30 daqiqa ichida piyoda yetib olish mumkin bo'lgan joyida, 500-750 metr radiusda joylashtirilgani maqsadga muvofiq. Mazkur holat shahar qishloq aholi manzilgohlari kesimida ham farqlanadi. Masalan, shahar joylarda xizmat ko'rsatish radiusi 300 metr, qishloq joylarda 500 metr bo'lishi qoida tariqasida keltirilgan [2].



3-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi kartasi

Karta Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahri va Nukus tumanida MTTlarning xizmat ko'rsatish radiusi aniqlandi. Aniqlashda:

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} \times 1000 \text{ [89; 153-b.]}$$

formulasidan foydalanildi.

Bu yerda, R^{Sr} = xizmat ko'rsatish radiusi;

A^{Sr} = ma'lum turdagi muassasalarning xizmat ko'rsatish areali;

n = ma'lum turdagi xizmat ko'rsatish muassasalari soni; 1000 = kilometr hisobidan metrga o'tish ko'rsatkichi.

Nukus shahrining maydoni 220,0 km.kvga teng bo'lib, shaharda 01.01.2024 yil holatiga ko'ra 254 ta MTT faoliyat ko'rsatadi.

Demak,

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} = \frac{\sqrt{220}}{254} = \frac{14,8}{254} \approx 0,06 \times 1000 = 60$$

Nukus shahrida MTTlarning xizmat ko'rsatish radiusi 60 metrga teng.

So'nggi yillarda bunday vaziyat asosan xususiy va oilaviy MTT hisobiga ro'y bermoqda.

Qishloq tumanlaridan Qonliqo'l'da jami 31 ta MTT mavjud. MTTlarning xizmat ko'rsatish radiusi Nukus shahridan keskin farqlanadi:

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} = \frac{\sqrt{740}}{31} = \frac{27,2}{31} \approx 0,88 \times 1000 = 880$$

Tumanda MTT xizmat ko'rsatish radiusi deyarli 880 metrni tashkil qiladi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim tizimining turli bo'g'inlarining rivojlanishi va hududiy tarkibini ko'rish jarayonida turli ma'muriy va demografik salohiyatga ega bo'lgan aholi punktlarida ta'lim muassasalari soni va tarkibidagi tafovutlar mavjudligi e'tiborimizni o'ziga tortdi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha shahar, shaharcha va aksariyat qishloq aholi punktlarida mavjud. Lekin maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining MTTga qatnash oralig'idagi hududiy tafovutlari shaharsozlik normalari va qoidalariga to'g'ri kelmasligi aniqlandi. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasining olis ovullarida ko'chma maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkillashtirish, bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilarini maxsus avtobuslarda tashishni ta'qozo etmoqda.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. ШНК 2.07.04-2019 Қишлоқ хўжалиги корхоналари худудларини меъморий режалаштириш ва ташкил қилиш. Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги. – Тошкент: 2020.
3. Qurbonov Sh.B., Uzakbaev K.K., Atabayev A.A. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etish masalalari. // «Fan va jamiyat», – Nukus: 2024. 39-42-b.
4. Узакбаев К. К. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳаларини худудий ташкиллаштириш. // Educational Research in Universal Sciences. 2023. Т. 2. №. 14. 233-240-б..

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimining tashkillashtirilishi, hududiy joylashuv xususiyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрыта организация системы дошкольного образования в Республике Каракалпакстан, особенности территориального размещения.

SUMMARY. The article describes the organization and distribution of the preschool education system in the Republic of Karakalpakstan.

QASHQADARYO VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI RIVOJLANISHINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

B.A.Yaxshiboyev – *mustaqil izlanuvchi*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo viloyati, meva-sabzavotchilik, klaster, hududiy xususiyatlar, ixtisoslashuv, iqtisodiy geografik omillar, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, resurs salohiyati, agroklaster.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, плодовоовощеводство, кластер, территориальные особенности, специализация, экономико-географические факторы, инфраструктура, сельское хозяйство, ресурсный потенциал, агрокластер.

Key words: Kashkadarya region, fruit and vegetable, cluster, territorial characteristics, specialization, economic geographical factors, infrastructure, agriculture, resource potential, agrocluster.

Kirish. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda klasterlashuv tizimi keng qo'llanilmoqda. Meva-sabzavotchilik sohasida klaster yondashuvi orqali ishlab chiqaruvchilar, logistika tarmoqlari, qayta ishlovchi korxonalar va eksportchilar o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Turkiya, AQSh va Xitoyda bu tizim orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyati va mahsulot sifatini oshirishga erishilgan [10]. Bunda hududlarning agroiqtsodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish asosida klasterlar hududiy ixtisoslashtirilgan tarzda joylashtirilmoqda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida meva-sabzavotchilik yo'nalishi mamlakat eksporti va oziq-ovqat xavfsizligi tizimida muhim o'rinni egallamoqda. 2020-yildan boshlab hukumat tomonidan agroklasterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga yer ajratish, infratuzilma bilan ta'minlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1, 2]. Shunga muvofiq holda, viloyatlarda iqlim va yer resurslariga mos ravishda ixtisoslashtirilgan klasterlar shakllanmoqda.

Qashqadaryo viloyati meva-sabzavot yetishtirish salohiyatiga ega bo'lgan yirik hududlardan biridir. Aholining ko'pligi, mehnat resurslarining yetarli bo'lishi, tog' etaklaridagi unumdor sug'oriladigan yerlarning mavjudligi, suv resurslarining nisbatan barqarorligi viloyatda bu soha rivoji uchun muhim omil bo'lib xizmat

qilmoqda. Ayni vaqtda, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi kabi tumanlarda meva-sabzavotchilik klasterlari shakllanmoqda. Biroq, klasterlar hududiy joylashuvi, ularning infratuzilmaviy ta'minoti va iqtisodiy samaradorligi jihatidan keskin farqlanmoqda.

Metodologiya. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, meva-sabzavotchilik klasterlarini hududiy rivojlantirishda geografik, tabiiy, iqtisodiy va demografik omillar o'zaro uyg'unlashgan holda hisobga olinishi zarur. Bu esa, viloyatning har bir tumanidagi resurs va imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, klasterlarni mantiqan asoslangan holda joylashtirish hamda ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlashni talab etadi. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik klasterlarining hududiy xususiyatlarini o'rganish amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Meva-sabzavotchilik klasterlari – bu ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'yicha o'zaro integratsiyalashgan, geografik jihatdan yaqin joylashgan korxona va tashkilotlar majmuasi bo'lib, ular o'zaro raqobat va hamkorlik sharoitida faoliyat yuritadilar. Bunday klasterlar hududiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, meva-sabzavotchilik sohasida klasterlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi [3]. Shu bois, har bir hududning tabiiy sharoitlari, mehnat resurslari, infratuzilmasi va bozor